TAEKVONDO WT MUSOBAQA QOIDALARI VA ULARNI O‘TKAZISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Saydaxmadov A’zamxon Valixon o‘g‘li
Farg‘ona davlat universiteti Yakkakurash sport turlari nazariyasi va uslubiyoti kafedrasi katta o‘qituvchisi
azamsaydaxmadov92@gmail.com
Farg‘ona davlat universiteti Jismoniy tarbiy va sport mashgulotlari nazariyasi va metodikasi 2-bosqich magistranti
Rahmidinova Feruzabonu
raxmidinovaferuza@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada Jahon taekvondo federatsiyasining (World Taekwondo, WT) kyorugi bo‘yicha musobaqa qoidalari va ularni o‘tkazishning o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. Jang tuzilishi, ball berish tizimi, elektron baholash vositalari, jarimalar (gam-jeom), videoko‘rib chiqish (IVR) tartibi va hakamlik jamoasining vazifalari yoritilgan. Qoidalarning 2026-yil 1-iyundan amal qilayotgan tahriri bilan kiritilgan asosiy o‘zgarishlar, jumladan, aylanma zarbalar ball qiymatining oshirilishi va ochkolar farqi chegarasining o‘zgarishi ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, qoidalar o‘zgarishining murabbiylik va mashg‘ulot jarayoniga ta’siri bo‘yicha amaliy xulosalar berilgan. Maqola taekvondo murabbiylari, hakamlari, sportchilari va jismoniy tarbiya hamda sport yo‘nalishi talabalari uchun mo‘ljallangan.

Kalit so‘zlar: taekvondo WT, kyorugi, musobaqa qoidalari, elektron baholash tizimi, gam-jeom, videoko‘rib chiqish, hakamlik, ball tizimi.

Kirish. Taekvondo jahonning ko‘plab mamlakatlarida ommalashgan va Olimpiya o‘yinlari dasturiga kiritilgan sport turi bo‘lib, uning rivoji musobaqa qoidalarining standartlashtirilishi bilan bevosita bog‘liq. WT musobaqa qoidalari jahon, kontinental va milliy darajadagi musobaqalarda yagona standartni ta’minlashga qaratilgan [9]. Qoidalarda belgilangan asosiy tamoyillarga amal qilmaydigan musobaqa taekvondo musobaqasi sifatida tan olinmaydi.

So‘nggi yillarda qoidalar tez-tez takomillashtirilmoqda: elektron baholash tizimlari kengaytirilmoqda, ball qiymatlari qayta ko‘rib chiqilmoqda, hakamlik shaffofligini oshirishga qaratilgan video tizimlar joriy etilmoqda. Masalan, 2026-yil aprelida Toshkentda o‘tkazilgan yoshlar o‘rtasidagi jahon chempionati davomida WT Bosh assambleyasi kyorugi qoidalariga yangi o‘zgartirishlarni tasdiqlagan [7]. Bu murabbiy va sportchilardan qoidalarni doimiy kuzatib borishni talab qiladi. Shunga qaramay, amaliyotda qoidalarni sporchilarga yetarlicha chuqur tushuntirish, ularning musobaqa va mashg‘ulot jarayoniga ta’sirini tahlil qilish masalalari yetarli darajada yoritilmagan. Shu bois ushbu maqolaning maqsadi WT kyorugi qoidalarining asosiy mazmuni va ularni o‘tkazishning o‘ziga xos jihatlarini tizimlashtirishdan iborat. Vazifalar: jang tuzilishi va g‘alabani aniqlash tartibini ko‘rib chiqish; ball tizimi va elektron baholashni tahlil qilish; jarimalar va video ko‘rib chiqish tartibini yoritish; musobaqani tashkil etish xususiyatlarini aniqlash; qoidalarning mashg‘ulot jarayoniga ta’sirini baholash.

Asosiy qism

1. Jang tuzilishi va g‘alabani aniqlash tartibi

Kyorugi musobaqasi kvadrat shaklidagi maydonda o‘tkaziladi. Uchrashuv uch raunddan iborat bo‘lib, har bir raund ikki daqiqa davom etadi, raundlar orasida bir daqiqa dam olish beriladi [9]. G‘alaba raundlardagi natijalarga qarab aniqlanadi: ikki raundda g‘alaba qozongan sportchi uchrashuv g‘olibi hisoblanadi. Raund va uchrashuvni muddatidan oldin tugatish mumkin bo‘lgan holatlar mavjud. Birinchidan, ochkolar farqi belgilangan chegaraga yetsa, raund tugatiladi. 2026-yil 1-iyundan boshlab bu chegara 12 ballidan 15 ballga oshirilgan; bu o‘zgarish yangi ball tizimiga, xususan, aylanma bosh zarbasi qiymatining oshirilishiga moslashtirilgan [5, 7]. Ikkinchidan, sportchi jarohat olib, tibbiy xulosaga ko‘ra jangni davom ettira olmasa, hakam jangni to‘xtatadi

(RSC). Uchinchidan, qoidalarni qo‘pol va takroran buzgan sportchi diskvalifikatsiya qilinishi mumkin [9].

Tenglik holatlarida ustunlikni aniqlash uchun maxsus mezonlar qo‘llaniladi. Ular qatoriga aylanma zarbalar orqali to‘plangan ballar, yuqori qiymatli texnikalar, jarimalardan olingan ballar va qayd etilgan zarbalar kiradi. Agar bu mezonlar bo‘yicha ham aniqlik kiritilmasa, hakamlar ustunlik (woo-se-girok) bo‘yicha qaror chiqaradi [5].

2. Ball tizimi va elektron baholash

Taekvondo WT musobaqalarining o‘ziga xos xususiyati shundaki, ball berish asosan elektron tizim yordamida amalga oshiriladi. Himoya vositasi va ball hisoblash tizimida (Protector and Scoring System, PSS) o‘rnatilgan sensorlar zarba tegishini va uning kuchini aniqlaydi, bosh zarbasi uchun esa dubulg‘a sensori ishlatiladi [9]. Avvallari musht zarbalari bu tizimdan tashqarida qolgan va hakam tomonidan baholangan edi. Hozirgi tahrirda esa PSS tizimlariga musht sensorlari qo‘shilgan: sensorli qo‘lqoplar ishlatilganda zarba kuchi va aniqligi tizim tomonidan qayd etiladi, texnikaning to‘g‘riligini esa hakam bir soniya ichida tasdiqlaydi [5].

Asosiy ball qiymatlari quyidagicha [5]:

musht zarbasi — 1 ball;

tanaga oyoq zarbasi — 2 ball;

boshga oyoq zarbasi — 3 ball;

tanaga aylanma zarba — 4 ball;

boshga aylanma zarba — 6 ball (avval 5 ball edi).

Aylanma zarbalar endi asosiy zarba ballidan ikki baravar ko‘p ball keltiradi. Bu qoida texnik jihatdan murakkab, ammo samarali harakatlarni rag‘batlantiradi va raqibga qarshi tez hal qiluvchi hujum qilishga undaydi.

Hakamlik jamoasi ham ushbu tizimga mos ravishda o‘zgargan. Musht zarbalari elektron tizim orqali qayd etilganda burchak hakamlari soni kamaytirilib, bitta texnik hakam qoldiriladi. Munozarali holatlarda markaziy hakam, texnik hakam va videojyuri birgalikda qaror qabul qiladi [5].

3. Jarimalar, videoko‘rib chiqish va xulq-atvor madaniyati

Qoidalarni buzgan sportchiga gam-jeom (jarima) beriladi. Gam-jeom berilishining asosiy sabablari maydon chegarasini kesib o‘tish, yiqilish, jangdan qochish yoki raqib bilan to‘qnashuvdan bo‘yin tovlash, raqibni yiqitib tashlash va qoidalarda taqiqlangan boshqa harakatlar hisoblanadi [5, 6]. 2026-yil iyunidan boshlab oyoqning faqat bir qismi chegara chizig‘ini kesib o‘tgan taqdirda ham gam-jeom beriladi; bu hakamlar qarorlarining bir xilligini ta’minlashga qaratilgan [5].

Har bir raundning oxirgi 10 soniyasida passivlik uchun qattiqroq tartib qo‘llanadi: chegarani kesib o‘tish, yiqilish va jangdan qochish kabi harakatlar uchun beriladigan jarima bitta gam-jeom sifatida hisoblanadi, biroq raqibga ikki ball qo‘shiladi [5]. Bu qoida sportchilarni raund oxirigacha faol qolishga undaydi va passiv taktikaning ustunligini kamaytiradi [8].

Videoko‘rib chiqish (Instant Video Replay, IVR) tizimi hakamlik qarorlarining adolatliligini oshiradi. Murabbiy muayyan holatlar bo‘yicha videoko‘rib chiqish so‘rashi mumkin: texnik ballar, jarimalar, PSS tizimidagi texnik muammolar va hokazo. So‘rov rad etilsa, murabbiyga noto‘g‘ri murojaat uchun gam-jeom beriladi, raundning oxirgi 10 soniyasida esa bu jarima raqibga ikki ball keltiradi [5]. Shuningdek, yangi tahrirga ko‘ra, murabbiy PSS tomonidan hisoblanmagan bosh zarbalari uchun videoko‘rib chiqish so‘rash huquqidan mahrum qilingan [5].

Xulq-atvor madaniyatiga ham e’tibor kuchaytirilgan. Uchrashuv oxirida hakam sportchilarni maydon markaziga chaqirib, ‘cha-ryeot“ (diqqat) va ‘kyeong-rye“ (ta’zim) buyruqlarini beradi, shundan so‘nggina g‘olibni e’lon qiladi. Bu taekvondoning ‘hurmat bilan boshlab, hurmat bilan tugatish“ falsafasini ta’kidlaydi [5].

4. Musobaqani tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari

Taekvondo musobaqasini o‘tkazish texnik jihatdan murakkab jarayon bo‘lib, bir qancha jihatlarni hisobga olishni talab etadi.

Jihozlar: sertifikatlangan elektron himoya vositalari, bosh dubulg‘asi sensorlari, sensorli qo‘lqoplar, ball taxtasi va videoko‘rib chiqish uskunalari. Musobaqadan oldin PSS tizimining sinov (test) tekshiruvlari o‘tkaziladi, chunki texnik nosozlik jang natijasiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin [5, 9].

Hakamlik jamoasi: markaziy hakam, texnik hakam, videojyuri, texnik delegat va musobaqa nazorat kengashi. Muhim musobaqalarda oxirgi 10 soniyada hal qilib bo‘lmaydigan holatlarda videojyuri qarorni texnik delegat va nazorat kengashiga yuborishi mumkin [7].

Vazn toifalari: sportchilar vazn toifalari bo‘yicha ajratiladi. 2026-yilda Olimpiya vazn toifalarini to‘rttadan oltitagacha oshirish sinovdan o‘tkazilmoqda [5].

Tibbiy nazorat: taekvondo kontakt xarakteridagi sport turi bo‘lgani uchun musobaqada shifokor nazorati va jarohat olgan sportchi bo‘yicha tibbiy qaror muhim ahamiyatga ega; jarohat soxtalashtirilgan hollar uchun alohida ko‘rib chiqish tartibi mavjud [5].

Poomsae: poomsae bo‘yicha musobaqalar alohida qoidalar asosida o‘tkaziladi va ijro aniqlik hamda taqdim etish (ifoda) mezonlari bo‘yicha baholanadi [9].

5. Qoidalar o‘zgarishining mashg‘ulot jarayoniga ta’siri

Musobaqa qoidalari mashg‘ulotning mazmuni va yo‘nalishini belgilaydi. Quyidagi xulosalar amaliy ahamiyatga ega.

Birinchidan, aylanma zarbalar qiymati oshganligi sababli ularni aniq va yuqori tezlikda bajarish texnik tayyorgarlikning ustuvor yo‘nalishiga aylanadi. Bu texnikaning muvozanat va aylanish tezligiga bog‘liqligi hisobga olinib, mashg‘ulotda shu zarbalarni nishonga aniqlik bilan urish, kombinatsiyalar va qarshi hujum shaklida mashq qilishni talab etadi [1, 2].

Ikkinchidan, 2 daqiqalik uch raund va oxirgi 10 soniyadagi passivlik qoidasi sportchidan raund oxirigacha faol bo‘lishni talab qiladi. Shu sababli maxsus chidamlilik va taktik tayyorgarlik raund strukturasiga mos rejalashtirilishi lozim; taekvondochilarning jismoniy va fiziologik xususiyatlari bo‘yicha tadqiqotlar ham jang davomida aerob va anaerob imkoniyatlar bilan birga tezlik hamda quvvat muhimligini ko‘rsatadi [4].

Uchinchidan, maydon chegarasi bo‘yicha qat’iy talab (oyoqning bir qismi chiqib ketsa ham jarima) mashg‘ulotlarda maydon chegarasini nazorat qilish, siljish va masofani boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishni taqozo etadi.

To‘rtinchidan, murabbiylar videoko‘rib chiqish so‘rash qoidalarini mukammal bilishi shart: noto‘g‘ri so‘rov jarimaga olib kelishi mumkin. Shu bois murabbiylarga va sportchilarga qoidalar bo‘yicha muntazam seminarlar o‘tkazish, mashg‘ulotlarda hakamlik ssenariylarini modellashtirish maqsadga muvofiq.

Beshinchidan, elektron himoya vositalari kuch va tegishni qayd etgani sababli, sportchining zarba kuchi va aniqligini rivojlantirish bilan birga, texnikaning tegish sifatiga e’tibor qaratish kerak. Mashg‘ulotlarda sensorli jihozlardan foydalanish sportchini musobaqa sharoitiga yaqinlashtiradi.

Xulosa. WT kyorugi qoidalari musobaqani standartlashtirish, adolatli hakamlikni ta’minlash va sport turining tushunarli, qiziqarli bo‘lishiga xizmat qiladi. Musobaqa ikki daqiqalik uch raunddan iborat, ball berish asosan elektron tizim orqali amalga oshiriladi, qarorlar esa hakamlik jamoasi va videoko‘rib chiqish tizimi yordamida tasdiqlanadi.

2026-yil iyun holatidagi tahrirda aylanma zarbalar ball qiymatining oshirilishi, ochkolar farqi chegarasining 15 ballga ko‘tarilishi, chegarani kesib o‘tish bo‘yicha talabning qat’iylashtirilishi hamda raund oxirida passivlik uchun yangi jarimalar sportchilarning texnik va taktik tayyorgarligi hamda murabbiylik qarorlariga ta’sir ko‘rsatadi. Musobaqa tashkilotchilari esa PSS tizimi, videoko‘rib chiqish va tibbiy nazorat bo‘yicha talablarga alohida e’tibor berishlari kerak. Qoidalar muntazam yangilanib turgani sababli, murabbiylar, sportchilar va hakamlar WT ning rasmiy hujjatlarini doimiy kuzatib borishlari, mashg‘ulot jarayonini amaldagi qoidalarga

moslashtirishlari lozim. Kelgusida qoidalar o‘zgarishining sportchilar natijalari va jarohatlanish ko‘rsatkichlariga ta’sirini statistik tahlil qilish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurasulova G.B., Baek Mun Jong, Tajibayev S.S., Nuritdinova Sh.N., Raxmatov B.Sh. Taekvondo nazariyasi va uslubiyati: Darslik. – Toshkent: O‘zkitobsavdonashriyoti, Turon-Iqbol, 2015. – 563 b.

2. Raxmatov B.Sh. Taekvondo nazariyasi va metodikasi: Uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: Ilm-fan nashriyoti, 2024. – 244 b.

3. Toshmatov Sh.R., Abdurasulova G.B., Baek Mun Jong, Nuritdinova Sh.N., Raxmatov B.Sh. Sport pedagogik mahoratini oshirish (taekvondo): Darslik. – Toshkent: O‘zkitobsavdonashriyoti, 2020. – 418 b.